

XIX ASR OXIRI - XX ASR BOSHLARIDA BUXORODA TA'LIM TIZIMI VA SHAKLLARI (S.AYNIY ASARLARI MISOLIDA)

U.T.Kamolov

*Qiziltepa tumani Maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi boshlig'i*

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Buxorodagi an'anaviy ikki bosqichli ta'lim tizimining ijobiy hamda shu bilan birgalikda salbiy tomonlari va ma'rifatparvarlar tomonidan isloh qilish yo'llari manbalar asosida atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Meyendorf, ikki bosqichli ta'lim tizimi, qorixona, “Aslzodalar”, Muxtasari viqoya”, hisob ilmi, “Sharxi mullo”, haftiyak, vaqf hisobi, otin oyilar maktabi, madrasa ta'limi.

Har qanday jamiyatda ham ta'lim jamiyatning taraqqiyoti yoki aksincha tanazzulini belgilagan. Buxoro amirligi an'anaviy ta'lim tizimi haqida gapiradigan bo'lsak, ta'lim maktab va madrasalarda olib borilgan. Asosiy ta'lim shakllari madrasa ta'limi edi. To'g'ri madrasada ta'lim o'rta asrlar andozasida qolayotgan edi, lekin baribir bu davr ta'lim tizimining ham o'ziga xos ijobiy va salbiy tomonlari bor edi. Buxoro amirligi madrasalari miqdori xususida turli ma'lumotlar mavjud. Jumladan: “XX asrning boshlarida Buxoroda madrasalar sonini o'sha davrda yashagan Abdurauf Fitrat va Sadriddin Ayniy 200 ta, Sadr Ziyo 204, Muhammad Ali Baljuvoniya esa 400 ga yaqin, Turkiston general-gubernatorligi hisoboti bilan bog'liq arxiv hujjatlardan birida 1914-yilda Buxoro amirligida 350 ta madrasa faoliyat ko'rsatgani qayd etilgan. “Sudlov notarial ishlari, ta'lim muassasalarini ruhoniylar boshqargan”[1].

XIX asrda Buxoroga sayohat qilgan Meyendorf Buxoro haqida quyidagilarni yozib qoldirgan: “O'zining ko'plab maktablari, olimlari haqida hamda muqaddas qadamjolari sababli musulmonlarning ziyoratgohiga aylangan. Ehtimol shuning uchun u “sharif” nomiga sazovor bo'lgandir”[2].

“XIX asrning 40-yillari, rus sayyohi N.Xanikovning ko'rsatishiga ko'ra, Buxoroda amir ro'yxatida ko'rsatilgan 103 ta madrasa bo'lib, ulardan 60 tasi eng katta madrasa hisoblangan. Ingliz sayyohi A.Byorms shaharda madrasalar soni 366 ta desa, P.P.Ivanov esa 150 dan ortiq madrasa faoliyat yuritgan va o'quvchilarning soni 30 mingga yetgan deb ko'rsatadi. L.Klimovich amirlik poytaxtida 103 ta madrasa talabalar soni 20.000 ta deya ta'kidlaydi. Xullas, turli ma'lumotlar umumshtirilganda Buxoro amirligi 200 dan 400 ga yaqin madrasa mavjud bo'lgan.

“Sadriddin Ayniyni yozishicha, Buxoro madrasalarida haftada 4 kunlik tahsil joriy etilgan. Ya'ni yakshanbadan chorshanbaga. Payshanba, juma, shanba kunlari

dam olish kunlari hisoblangan. Odatda mashg‘ulotlar sentabrda boshlanib, mart oyigacha davom etgan. Yoz oylari va ramazon oyida ta’tilga” chiqilgan”[3].

Buxorodagi tartib qoidaga binoan madrasaning har bir hujrasi uchun vaqf mulki ajratilgan, bundan maqsad shu hujrada yashovchi talaba yoki mudarrisning moddiy ta’minoti tashkil qilish bo‘lgan (stipendiya) Ammo keyingi davrlarda Sadridin Ayniy ma’lumotlariga ko‘ra amir Muzaffar va Abdulahad davrida bu tartib o‘z mohiyatidan chekina borgan. Shariyat hukmi bilan sotmoq va olmoqni qat’iy suratda man qilingan vaqf o‘rinlari, katta mullalarning manfaatlari uchun sha’riy va halol sanaladi.

Maktablarning ham ko‘pchiligi masjidlar qaramog‘ida bo‘lib, undagi o‘qituvchilar vaqf hisobidan ta’minlangan. Ammo bu maktablarda ta’lim sifati qoniqarli emas edi degan xulosaga S.Ayniyning quyidagi so‘zlari orqali kelishimiz mumkin: “maktab yoshiga yetganimda o‘zi o‘qitishga vaqti bo‘lmagan otam meni qishlog‘imiz-Soktare masjidi qaramog‘idagi maktabga berdi. Men u maktabda biror narsa o‘rgana olmadim shundan keyin otam meni bu maktabdan olib, qishloq imomi xotiniga qarashli qizlar maktabiga berdi”. Buxoro maktablar asosan masjidlar qaramog‘ida bo‘lgan. Ya’ni ta’lim maktab tomonidan tashkil qilingan va ta’minlangan. Ammo shu narsa ma’lumki, ta’lim sifati hamma maktablarda ham yaxshi emasdi. Yana e’tibor qarataylik ta’limda o‘g‘il bolalar va qizlar alohida o‘qitilgan va ular uchun alohida maktablar bo‘lgan.

“1896-yilda bir Xoja Zohid ismli kishining Buxoroning Sari Puli Ravganganon mavzesidan bir yangi madrasa qurganligi aytib o‘tilgan. U madrasada 22 ta hujra bo‘lgan. Madrasaning ko‘cha tomon qismi ikki qavatli va qolgan tomonlari bir qavatli bo‘lgan. Madrasa darvozasi janub tomonga ochilgan. Bu madrasani Sadridin Ayniy kichik madrasa ekanligini yozgan”[4]. Demak bundan ko‘rinadiki Buxoroda bunday madrasalar kichik hisoblansa odatiy madrasalar anchayin yirik bo‘lgan.

Buxoroda tatar maktablari mavjud bo‘lib, ularda o‘qitish birmuncha ilg‘or edi-yu, lekin darslik yetishmaganligi, aniqrog‘i mahalliy tildagi darsliklarning deyarli yo‘qligi, bolalarga ta’lim olishda to‘sqinlik qilardi. Tatar maktablarida Buxoro bolalaridan bir necha nafar o‘qisalar ham, lekin muallim-tatar, kitoblar ham tatarcha bo‘lganlikdan Buxoroning tojik bolalari maktablardan tuzuk foyda qila olmas edi.

Hamma jabhada bo‘lgani kabi ta’lim tizimida ham ba’zi adolatsizliklar sodir bo‘lgan. Asosan bu yuqori tabaqa vakillari tomonidan amalga oshirilgan. Yaxshi ta’lim ko‘rmasda yuqori lavozimlarni egallagan “Aslzodalar” bunday nuqsonlar davom etishiga asos, islohotlarga to‘siq bo‘lardi. Quyidagi jumalarga e’tibor qarataylik: “Odatda Buxoroda katta mullalarning farzandlari tarbiyasiz qolar yoki yomon tarbiya olib, yoshlari ulg‘ayganda ham har xil axmoqona va beadab ishlardan o‘zlarini tiya olmasdilar. Shunga qaramasdan otasining soyasida katta mansablarga erishib, ko‘pincha o‘z mansablarini suiste’mol qilardilar”.

O‘tmish tarixni ilmiy-tarixiy, haqqoniy va xolisona yoritishda turli xil manbalardan foydalaniladi. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Buxoro vohasida madrasa ta’limi to‘g‘risida tushuncha hosil qilishda S.Ayniyning asarlari alohida o‘ringa ega. Yozuvchi sodda va qisqa gaplar bilan o‘zining fikrlarini bayon qiladi. Bu oddiy va hammaga lo‘nda gaplar Buxoro madrasalari ta’limini atroflicha bilishni ta’minlaydi. Yozuvchining bu boy mazmunga ega bo‘lgan ma’lumotlarni o‘qigan tadqiqotchi boshqa biron bir manbaga ehtiyoj sezmaydi.

Dars jarayoniga e’tibor qaratsak, darslarda samaradorlik havas qilarlik emasdi. Madrasa talabalarining ko‘pchiligi ta’lim jarayonidan o‘zlariga biron narsa olmagan. Bunga sabablar bir qancha. Birinchidan, ta’lim shakllari o‘rta asrlardan qolib ketgan usul va manbalar asosida tashkil etilgan. Ta’limni yangilash va rivojlantirishga deyarli umuman e’tibor qaratilmagan. Ikkinchidan, ta’lim arab tilida bo‘lgan, kitoblar tarjima qilib, alohida kitob qilinmagan, darslar esa asosan diniy edi. Ba’zi o‘rinlarda adabiyot, u ham bo‘lsa so‘fiylik shaklida o‘tilgan. Aniq va tabiiy fanlarga juda kam e’tibor qaratilgan. Bunday mutaxassislariga negadir talab ham kam bo‘lgan. Yana ajablanarli tomoni madrasa ta’limini olgan talaba ham asosan madrasa uchun kadr bo‘lgan. Masalan: S.Ayniyning quyidagi so‘zlariga e’tibor bersak: “Biz oltmish nafar shogird shu bolaxonada maddoh marakasiga to‘plangan odamlarday ketma-ket siqilishib o‘tirardik. Jamoa qorisi o‘rtaga o‘tirib, o‘z kitobidan shu kungi darsga taalluqli joyni arab tilida o‘qir, domulla esa, avval tarjima qilib, so‘ngra sharxlab bu darsni bizlarga tushuntirardi. Shogirdlarning aksariyati tushunib-tushunmay, ikki-uch kishidan bo‘lib, baqirib muzokaraga tushib ketardilar. Ammo Buxorocho dars berish usuliga mohir domullamiz o‘zining yo‘g‘on, baland ovozi chaqnab turgan ta’sirli ko‘z qarashi bilan g‘avg‘oni bosib, har xil izoh va sharhlar bilan muallifning maqsadini qobiliyati borlarga tushuntirar edi. Shu bilan bir soat vaqt o‘tib, bir kunlik darsimiz tugardi. Bu darsdan talabalarning sakson protsenti hech narsa tushunmaganini men yaxshi bilardim”. Yozuvchi madrasaning bir darsini shunday tushuntiradi va darsning samarasiz ekanligini aytadi.

“...U Buxoro madrasalarining rasmiy darslari bilan bir qatorda, hisob (matematika)ni ham yaxshi o‘rgangan ekan.”. Demak, amaliy ahamiyati juda yuqori bo‘lgan matematika fani rasmiy fan emas, agar bu fanning qanchalik muhimligini hisobga olsak bu ta’limning juda orqada deyishga asos bo‘lishi mumkin. Madrasalarda o‘tiladigan darslar ham qaysidir ma’noda, “muhimlik darajasi”ga qarab ajratilgan, misol uchun S.Ayniyning quyidagi esdaligidan buni anglash mumkin:” ... men hammadan ilgari uning huzurida “Muxtasari viqoya” darsini boshladim, Buxoro madrasalarida bundan ahamiyatsiz dars yo‘q edi”[4].

“Ibrohim biz bilan jamoa bo‘lib darsxonada o‘qigan darslardan tashqari, yana dars o‘qirdi”. Bir narsani aytib o‘tish kerakki Buxoro madrasalarida aniq va tabiiy fanlarga emas, ijtimoiy masalalarga asosiy e’tibor qaratilgan. Masalan, bir yig‘inda bir

ko‘zi ojiz kishi boshqa bir mullaga quyidagi so‘zlarni aytadi. “Siz bilasizmi Buxoro mullalarining munozara usullarining nimadan iborat- deb savol berdi. U va o‘zi javob berishga kirishdi, - hammadan ilgari o‘z muddaosini mantiqiy dalillar bilan isbot qilishdan oldin munozarachi raqibini qattiq, dilozor so‘zlar bilan qo‘rqitib olishdan iborat. Agar ilmiy munozara uchun munosib sanalgan bu usulni mantiq termini bilan atasak muqobara (bir-birga kattalik qilish) va mug‘olata (bir-birini chalg‘itish) bo‘lib chiqadi”. Agar ta‘lim darajasi haqida gapiradigan bo‘lsak, ta‘lim sifati ham yaxshi emas, bunga sabab esa yana o‘sha usullarning eskirib ketganligi. S.Ayniy tarjimai holida “O‘n yoshimda maktabni tugatdim, lekin hali savodsiz edim”[4]. XIX asr uchun bu juda yomon natija hisoblansada negadir bu tizim isloh qilinmagan. Shuning uchun ham jadidlar faoliyatini va asosiy e‘tiborini ta‘lim tizimiga qaratib, ishni shundan boshlashgan. Yozuvchi madrasa ta‘limini atroflicha tahlil qilgan holda Buxoro madrasalari ta‘limining zamon talabidan juda orqada qolgan xulosasiga kelib, afsus bilan shunday yozadi: “Uch yuzdan ortiq talabasi xatm qilgan mullalari bo‘lgan Buxoroning Mir Arab madrasasida men she‘r va adabiyot to‘g‘risida suhbatlashadigan biron kishini ham ko‘rolmadim”.

“1892-1893-o‘quv yilida men “Sharxi mullo” o‘qiydigan bo‘lib qoldim. Endi kichik mullalardan tashqari biror katta madrasada o‘qimog‘im kerak edi”. Yozuvchi o‘sha vaqtdagi she‘riyatni mazmun mohiyati uning mavzusi to‘g‘risida shunday yozadi: “Buxoro amirligida o‘sha vaqtlarda she‘r tematikasini dunyodan va zamondan shikoyat qilish o‘taketgan madhiyalar odobsizlik bilan aytilgan shaxsiy hajviyalar, may, mahbub va shunga o‘xshash feodal hayotga mos masalalar tashkil qilar edi”[4]. Shoir shariyat janrining bilimdoni bo‘lib, she‘riyatdagi o‘zgarishlarni sinchkovlik bilan ilg‘ab olgan: “XIX asrning oxirlarigacha poeziyada Bedilning uslubiga taqlid qilinardi, faqat XIX asr oxirlaridan boshlab ommaning tiliga mayl-e‘tibor kuchayib poeziyada sodda ommabop til vujudga keldi”. Ta‘limni isloh qilish zarurligi shu darajada ayon ediki, bu ishga ko‘pchilik bel bog‘lagan. Ammo amir hukumati va uning homiyligi va himoyasidagi eski tartib tarafdorlari bunga qattiq qarshilik ko‘rsatadi. S.Ayniy o‘z esdaliklarida eslab o‘tgan quyidagi jummalarga qaraganda ular yangi o‘qitish tizimini shariatga qarshi degan sabab bilan tanqid qilgan ammo ularning ko‘pchiligi bunday emasligini bila turib bu narsaga qarshi kurashgan. Sababi yangilik ularning shaxsiy manfaatlariga dahl qilishi mumkin edi.

Buxoroda madrasa ta‘limi rasman vaqf hisobidan bo‘lsa ham ayrim ta‘lim xarajatlari mavjud bo‘lgan. “Bir yil hamkasblarimiz har yilgiday domla mudarris oldida kelajak yilning darsini boshlab qo‘ymoqchi bo‘ldilar. Yangi dars boshlash uchun albatta domlaga sulukat (madrasa talabalarining mudarrislarini ziyofat qilib fotixa olishlari) qilish kerak. Buning uchun o‘zaro pul to‘pladilar”[4]. S.Ayniyning Buxoro madrasalari ta‘limi to‘g‘risidagi bu ma‘lumotlardan o‘rta maktabning 9-sinfida O‘zbekiston tarixi fanidan o‘tiladigan darslarda foydalanish mumkin.

O‘quvchi bu ma’lumotlarni o‘qir ekan, o‘sha davr oliy maktabi bo‘lgan madrasa ta’limi to‘g‘risida tasavur va bilimga ega bo‘ladi va dars mashg‘ulotlarini yaxshi o‘zlashtiradi.

Ta’lim tizimidagi kamchiliklar, tabiiy fanlarga e’tiborsizlik Buxoroda vabo tarqalganda to‘la o‘z aksini topdi. Misol uchun shaharda vabo tarqalgan bir sharoitda hukumat chiqargan “yechim”ga e’tibor berishning o‘zi baho berish uchun yetarli bo‘la oladi. “Buxoro hukumatining vaboga qarshi choralari kulguli edi: hukumat qozi kalon vositasi bilan farmon chiqardi. Bu farmonga muvofiq guzarlarning muazzinlari xushovoz qorilar to‘rttadan beshtadan guruppalariga bo‘linib, “xudovandi karim bemahal azonlar sharofati bilan el boshidan vaboni ko‘tarsin” uchun har kun kechasi xuftondan tong otguncha shahar ko‘chalarini aylanib, guzarlarni boshida va chorrahalarda bir ovozda bemahal azon aytishlari lozim”. Kasallarga xizmat qilish masalasida Rossiya hukumati yordamida kasallarni davolash uchun bittagina kasalxona ochiladi. S.Ayniy esa bu haqda esdaliklarida: “Buxoroda esa bittagina kasalxona bo‘lib, unda bitta rus doktor, bir tarjimon va bir qashqarlik feldsher ishlardi xolos”[4]. Bunday vaqtda amirlik hukumati ham kasallikka qarshi yo‘llarda karantin markazlarini tashkil qilishadi. “Buxoro hukumatining karantinlaridan biri Qarshi yo‘lidagi Chitariq mavzeyida, ikkinchisi yo‘lidagi Xonrabot mavzeyida tashkil topgan edi. Dashtlarning etagida tashkil topgan bu joylaininu har birida bittadan Buxorolik tabib va amirlik otliq navkarlaridan bir guruhi turardi. U yerlarda ham bo‘yra kapachalar qurilgan, ularning yonlarida ikki-uch katta mis qozonda suv qaynab turardi. Qozonlarga qopqoq o‘rniga bo‘yra yopib qo‘yilgan edi. Navkarlar yo‘lovchilarni tutib kelar, tabiblar ularning tomirlarini tutib ko‘rib sog‘lom deb hukm qilar, shundan so‘ng yo‘lovchilar kiyimlarini yechib kapalarga kirar, boshlariga bir chelak suv quyar, ma’murlar ularning kiyimlarini qozon ustiga yopilgan bo‘yra ustiga qo‘yib bug‘lab berar edilar, ammo yo‘lovchilarning cho‘milishi shu qozondagi suvdan berilardi. Shu bilan “dizinfeksiya” marosimi tugab odamlar bug‘da namlangan kiyimlarini kiyib, o‘z yo‘llariga qarab ketadilar”. Tabiblarning davolash usuli ikki xil bo‘lib, biri diniy ruhda bo‘lib, asosan mullalar faoliyati orqali, ikkinchi turdagi tabiblar bo‘lib bular qoloqroq bo‘lsada tibbiy davolash usullaridan foydalangan. Tabobat bo‘yicha ta’lim ham aytarli rivojlanmagan.

Bizning fikrimizcha, ta’limning barcha bosqichlarida o‘tiladigan tarix ta’limida S.Ayniyning asarlaridan foydalanish quyidagi ta’limiy vazifalarni bajarishga xizmat qiladi:

- XIX asr va XX asrning birinchi 20 yilligi Buxoro vohasi aholisining ijtimoiy tarixini tarixiylik nuqtai nazaridan yaratish imkoniyatini beradi

- Buxoro vohasi aholisini kasb-kori to‘g‘risida aniq ma’lumotlarni olish imkoniyatini beradi

- Turli kasb-hunar bilan shug‘ullanadigan aholining davlat hokimiyati bilan munosabatlari to‘g‘risida tasavvur hosil qilishga yordam beradi

- Buxoro amirligi aholisining turmush-tarzi, hayot faoliyati, o‘sha davr aholisining ijtimoiy hayoti to‘g‘risida haqqoniy ma’lumot beradigan qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati :

1. Tillaboyev S, Zamonov A O‘zbekiston tarixi umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik T.: “Sharq” 2014. 110-bet.
2. Мейендорф Е.К “Путишествие из Оренбурга в Бухару” М.: 1975 – с.93.
3. Asrorova L.Q “Buxoro madrasalar tarixidan” T.: “Hilol” 2016. 20-bet.
4. .Ayniy “Asarlar” 1-tom T.: O‘zSSR davlat badiiy adabiyot nashriyoti. 1953 yil.